



## 2019 YIL YANVAR-SENTYABR OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-sentyabr

### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **23551,4 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **18468,7 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **78,4 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **23,6 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan **23551,4 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* **118,7 %** ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **121,4 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,5 foizni** tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan **86,2 %** ni tashkil etdi, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,6 foizni** tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tgan

yilga nisbatan **85,0 %** ni, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,6 foizni** tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini o'tgan yilga nisbatan **154,1 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,3 foizni** tashkil etdi.

\* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 0,6%.



Ishlab chiqaradigan sanoat 97,5%



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 1,6%.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 0,3%.

## 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.





### *Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **129,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,6 %** ni tashkil etdi.

### *Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).*

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **22993,4** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,5 %** ni tashkil etdi.





***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **366,4** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,6 %** ni tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya  
tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **61,7** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni tashkil etdi.



## Viloyatda yanvar-sentyabr oylarida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarilishi


Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil Yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yavar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)	dona	144224	103722
Paxtadan yigirilgan ip	tonna	18102,1	16089,0
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar suv va suvsiz muhitda	tonna	1995,5	1468,6
Tabiiy gaz	mln. kub. metr	31,5	24,2
O'simlik yog'i	tonna	9412,6	7511,6

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yavar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Neft	ming tonna	47,5	52,1
Bugdoy uni	tonna	97952	90843
Машинада ёки кўлда тўқилган трикотаж футболкалар, майкалар, бошқа кийиладиган кийимлар ва иш кийимлари	ming dona	1884,7	1064,0
Alyuminiydan elektr o'ralgan sim, po'lat arqonlar, past kuchlanishdagi kabel, to'kilgan shnurlarva shu kabi buyumlar	tonna	11080,6	8346,7
Aroq – (spirt 100%)	ming litr	579,0	1193,0


### ***Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi ulushi, %***

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani 61,0 % ulushini, Andijon shaharlari 15,1 %, Honobod shaharlari 3,5 %, Andijon tumani 2,7 %, Shahrixon tumani 2,6 %, Baliqchi tumani 2,3 %, Izboskan tumani 2,0 %, Xo'jaobod tumani 1,9 %, Oltinkol tumani 1,7 %, Qo'rgontepa tumani 1,6 %, Jalaquduq tumani 1,5 %, Marhamat tumani 1,0 %, Pahtaobod tumani 1,0 %, tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Ulug'nor (0,6 %), Bo'z (0,7 %) va Buloqboishi (0,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so`m)**




Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 23551,4 mlrd so`mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 14355,4 mlrd so`mni, Andijon shahrida 3559,0 mlrd so`mni, Honobod shahrida 834,4 mlrd so`mni, Andijon tumanida esa 638,8 mlrd so`mni tashkil etdi .

### *Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora - tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **18468,7** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 33,1 % ga o'sishni ta'minladi, ja'mi sanoatdagi ulushi esa **78,4 %** ga yetdi.

### *2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari*


*ishlab chiqarish hajmi 18468,7 mlrd.so'm*




### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol mollar ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'linadi.

*Yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da*




**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**



### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 23,6 % tashkil etmoqda.


#### 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (99,6 %) va Hojaobod tumanida (92,6 %) va SHahrixon tumanida (93,3 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,5 %), Honabod shahri (15,3 %) kuzatildi.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 44651,4 ming so'm, Honobod shahrida 19865,5 ming so'm, Andijon shahrida 8149,8 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 7625,5 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

## Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 6483 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2437 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 37,6 %) Andijon shahriga, 754 tasi (11,6 %) Asaka tumaniga va 604 tasi (9,3 %) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik


(2019 yil yanvar- sentyabr holatiga)



### Andijon viloyatida 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda jami 1249 ta yangi sanoat korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ulardan 341 tasi Andijon shahri, 121 tasi Shahrihon tumani, 114 tasi Asaka tumani, 111 tasi Andijon tumani, 77 tasi Marhamat tumani, 67 tasi Qo'rgontepa tumani, 60 tasi Oltinko'l tumani, 59 tasi Ho'jaobod tumani, 57 tasi Izboskan tumani, 52 tasi Jalaquduq tumani, 45 tasi Baliqchi tumani, 37 tasi Paxtaobod tumani, 36 tasi Buloqboshi tumani, 32 tasi Bo'z tumani va 27 tasi Honobod tumanlariga to'g'ri keladi.

#### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



***Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatqichlari***

Tarmoqlararo sanoat kuuperatsiysini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4690,9 mlrd. somlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora– tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

<b><i>Mahalliyashtirish</i></b>	<b>2019 yil yanvar-sentyabr oylarida</b>	<b>2018 yil yanvar-sentyabr oylarida</b>
<b>Loyihalar soni, birlik</b>	<b>60</b>	<b>61</b>
<b>Korxonalar soni, birlik</b>	<b>30</b>	<b>38</b>
<b>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>4690,9</b>	<b>3093,7</b>
<b>Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollari</b>	<b>75,3</b>	<b>9,6</b>
<b>Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik</b>	<b>114</b>	<b>7</b>

**Andijon viloyat statistika boshqarmasining  
sanoat statistikasi bo'limi.**

**Telefon: (+99871) 230-82-57**